

KONSTITUTSIYANING USTUVORLIGI VA O'ZBEKISTONDA HUQUQIY DAVLAT TAMOYILINING AMALGA OSHIRILISHINING MUHIM JIHATLARI

Rafikova Muattar Ravshanovna

*Bojxona instituti Umumhuquqiyfanlar kafedrası dotsenti,
bojxona xizmati podpolkovniki, pedagogika fanlari bo'yicha
falsafa fanlari doktori(PhD)*

Abdullayeva Gulsanam

Bojxona instituti 1-kursanti

Anonatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaning ustuvorligi va huquqiy davlat tamoyilining shakllanishi va rivojlanish bosqichlari yoritilgan. Shuningdek, huquqiy davlatning asosiy tamoyillari – qonun ustuvorligi, hokimiyatlar bo'linishi, inson huquqlari va sud mustaqilligi kabi mezonlar O'zbekiston misolida tahlil qilingan. 2023-yilda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar, Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari hamda konstitutsiyaviy nazorat tizimi maqola markazida turadi. Maqola xulosasida konstitutsiyaviylikni mustahkamlash va huquqiy davlatni barpo etish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ilgari surilgan.*

Kalit so'zlar: *Konstitutsiya, konstitutsiya ustuvorligi, huquqiy davlat, qonun ustuvorligi, hokimiyatlar bo'linishi, inson huquqlari, konstitutsiyaviy sud, konstitutsiyaviy nazorat tizimi.*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются формирование и развитие принципов верховенства Конституции и правового государства в Республике Узбекистан. Основные признаки правового государства — верховенство закона, разделение властей, защита прав человека и независимость судебной власти — рассматриваются на примере Узбекистана. Особое внимание уделено конституционным реформам 2023 года, полномочиям Конституционного суда и системе конституционного контроля. В заключение приведены научно-практические предложения по укреплению конституционализма и построению правового государства в Узбекистане.*

Ключевые слова: *Конституция, верховенство Конституции, правовое государство, верховенство закона, разделение властей, права человека, Конституционный суд, система конституционного контроля.*

Anotation: *This article examines the development and implementation of the principles of constitutional supremacy and the rule of law in the Republic of Uzbekistan. The core principles of a rule-of-law state—such as the supremacy of law, separation of powers, human rights protection, and judicial independence—are explored in the context of Uzbekistan. Special attention is given to the constitutional reforms of 2023, the powers of the Constitutional Court, and the constitutional control system. The article concludes with*

scientific and practical proposals aimed at strengthening constitutionalism and further developing the rule-of-law state in Uzbekistan.

Keywords: *Constitution, rule of constitution, legal state, rule of law, division of powers, human rights, constitutional court, constitutional control system.*

Kirish.

Konstitutsiyaning ustuvorligi va huquqiy davlat tamoyili har qanday demokratik jamiyatning huquqiy negizini tashkil etadi. Bu tamoyillar davlat hokimiyatining cheklanishi, qonun ustuvorligining ta'minlanishi, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarining kafolatlanishi orqali jamiyatda barqarorlik va adolatga erishishni ko'zlaydi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish yo'lida izchil islohotlarni amalga oshira boshladi. Bu boradagi eng muhim hujjat – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bo'lib, u davlat boshqaruvi tizimini, fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni belgilovchi huquqiy poydevor vazifasini bajaradi. Bugungi kunda Konstitutsiyaning ustuvorligini ta'minlash va huquqiy davlatni shakllantirish O'zbekistonda olib borilayotgan konstitutsiyaviy, institutsional va ijtimoiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 2023-yilda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar bu boradagi yutuqlarni yanada mustahkamladi. Yangilangan Konstitutsiyada inson huquqlari, sud mustaqilligi, hokimiyatlar bo'linishi hamda qonun ustuvorligi tamoyillari yanada chuqurroq ifodasini topdi. Shu bilan birga, konstitutsiyaviy nazorat tizimining takomillashtirilishi va Konstitutsiyaviy sudning vakolatlarining kengaytirilishi ushbu islohotlarning samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaning ustuvorligini ta'minlash va huquqiy davlat tamoyillarini hayotga tatbiq etishning nazariy va amaliy jihatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari suriladi.

Konstitutsiyaning ustuvorligi tamoyili.

Konstitutsiya har qanday demokratik davlatning huquqiy asosidir. U jamiyat va davlat hayotining asosiy tamoyillarini belgilaydi, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlaydi hamda davlat hokimiyati tashkil etilishi va faoliyat yuritishini tartibga soladi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatda huquqiy davlatni barpo etish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishning mustahkam asosi bo'lib xizmat qiladi. Bugungi kunda Konstitutsiyaning ustuvorligini ta'minlash, huquqiy davlat tamoyillarini amalga ro'yobga chiqarish O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning markaziy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Konstitutsiyaning ustuvorligi deganda, davlat hokimiyati, fuqarolar, tashkilotlar va butun jamiyat faoliyatining Konstitutsiyaga mos tarzda yuritilishi tushuniladi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi davlatning bosh qonuni bo'lib, u barcha qonunlar, qarorlar va har qanday huquqiy hujjatlar uchun asosiy mezon hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 15-moddasida quyidagicha belgilangan: "O'zbekiston Respublikasida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlarining ustunligi so'zsiz tan olinadi. Davlat va uning organlari, boshqa tashkilotlar, mansabdor shaxslar, fuqarolik jamiyati

institutlari hamda fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq ish yuritadilar"[1]. Bu tamoyil davlat va jamiyat hayotida adolat, qonuniylik va tartibni ta'minlashning poydevoridir. Har qanday qaror, qonun yoki farmon Konstitutsiyaga muvofiq bo'lishi kerak.

Konstitutsiyaning ustuvorligi — bu tamoyilga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari mamlakatda oliy yuridik kuchga ega bo'lib, barcha davlat hokimiyati organlari, mansabdor shaxslar, jamoat birlashmalari va fuqarolar faoliyati aynan Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq amalga oshirilishi shart ekanligini bildiradi[2].

Yuqori yuridik kuch: Konstitutsiya va qonunlar boshqa barcha normativ hujjatlardan ustun turadi va to'g'ridan-to'g'ri amal qiladi[3].

Davlat hokimiyati faoliyatining qonuniyligi: Davlat organlari va ularning vakillari o'z faoliyatlarini faqat Konstitutsiya va qonunlarga muvofiq olib borishlari kerak, bu esa davlat boshqaruvida qonun ustuvorligini ta'minlaydi[4].

Fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish: Konstitutsiyaning ustuvorligi fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlashda muhim omil bo'lib, davlat rahbariyati ham bu tamoyilga rioya qilishga mas'uldir[5].

Huquqiy davlat tamoyili.

Huquqiy davlat – huquqning hukmronligi, qonunning ustuvorligi, barchaning qonun va mustaqil sud oldida tengligi ta'minlanadigan, inson huquq va erkinliklari kafolatlanadigan, hokimiyat vakolatlarining bo'linishi prinsipi asosida tashkil etilgan demokratik davlat[6]. Huquqiy davlatning asosiy belgilari quyidagilardan iborat: qonun ustuvorligi, hokimiyatlar bo'linishi, insob huquq va erkinliklarining konstitutsiyaviy kafolatlari, sud hokimiyatining mustaqilligi, fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, huquqiy davlat qurish yo'lini tanladi. Shu yo'nalishda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy, institutsional va ijtimoiy islohotlar ushbu maqsad sari muhim qadam bo'ldi. Ayniqsa, so'nggi yillarda, 2023-yilgi Konstitutsiyaviy islohotlar orqali huquqiy davlat tamoyillarining amaliy hayotga tatbiq etilishi yo'lida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'ldi. Yangilangan Konstitutsiyada inson huquqlari, qonuniylik va ijtimoiy adolat prinsiplariga alohida e'tibor qaratilgan.

Konstitutsiyaviy nazorat va qonun ustuvorligini ta'minlash.

Konstitutsiyaviy nazorat — bu normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini nazorat qilish tizimidir. Bu tizim orqali Konstitutsiyaning ustuvorligi amalda ta'minlanadi[7]. O'zbekistonda bu vazifani O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi bajaradi. Konstitutsiyaviy sud:

1) O'zbekiston Respublikasi qonunlarining va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmonlari, qarorlari va farmoyishlarining, hukumat, mahalliy davlat hokimiyati organlari qarorlarining, O'zbekiston Respublikasi davlatlararo shartnomaviy va boshqa majburiyatlarining O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

2) O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar — O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, ratifikatsiya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlari O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan

imzolanganiga qadar — O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlaydi;

2¹) O‘zbekiston Respublikasi referendumiga chiqarilayotgan masalalarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi;

3) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Konstitutsiyasining O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga, Qoraqalpog‘iston Respublikasi qonunlarining O‘zbekiston Respublikasining qonunlariga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi;

4) O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari normalariga sharh beradi;

5) O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining muayyan ishda qo‘llanilishi lozim bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlarning O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida sudlar tashabbusi bilan kiritilgan murojaatini ko‘rib chiqadi;

6) konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritish amaliyotini umumlashtirish natijalari yuzasidan har yili O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to‘g‘risida axborot taqdim etadi.

Konstitutsiyaviy sud konstitutsiyaviy huquq va erkinliklari muayyan ishda qo‘llanilgan va O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq bo‘lmagan qonunda buzilgan deb hisoblovchi fuqarolar hamda yuridik shaxslarning shikoyatlarini ham ko‘rib chiqadi.

Konstitutsiyaviy sud O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari bilan berilgan vakolati doirasida boshqa ishlarni ham ko‘radi.

Konstitutsiyaviy sud o‘z vakolatlarini amalga oshirayotganda boshqa sudlarning yoki o‘zga organlarning vakolatiga kiradigan barcha hollarda haqiqiy holatlarni aniqlash va tekshirishdan o‘zini tiyadi[8].

Amaliy muammolar va dolzarb masalalar.

Garchi O‘zbekistonda huquqiy davlat tamoyillarini shakllantirish borasida katta ishlar amalga oshirilgan bo‘lsa-da, hali yechilmagan bir qator muammolar mavjud. Jumladan:

Qonunchilikning ba’zi hollarda qarama-qarshi yoki noaniq bo‘lishi, bu esa ularni qo‘llashda turli talqinlarga olib keladi;

Jamiyatda huquqiy madaniyat yetarli darajada shakllanmagan, bu esa Konstitutsiyaning ustuvorligini amalda ta’minlashga to‘sqinlik qiladi. Shuningdek, qonun ijodkorligida fuqarolik jamiyatining faol ishtiroki hali yetarli emas. Bu holat Konstitutsiya va qonunlarning hayotiyliigi va amaliy samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston Respublikasida Konstitutsiyaning ustuvorligini ta’minlash va huquqiy davlat tamoyillarini hayotga tatbiq etish yo‘lida muhim bosqichlar bosib o‘tilmoqda. 2023-yilda amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlar bu yo‘nalishdagi islohotlarning mantiqiy davomi bo‘lib, Konstitutsiyaning jamiyat va davlat hayotidagi roli yanada kuchaytirildi. Konstitutsiyaviy nazorat tizimining takomillashtirilishi, Konstitutsiyaviy sud vakolatlarining kengaytirilishi va inson huquqlari himoyasining kuchaytirilishi huquqiy davlat qurilishining muhim kafolatlaridan biridir. Shu bilan birga, qonunchilikdagi noaniqliklar, sud hokimiyatining to‘liq mustaqil emasligi, huquqiy madaniyatning pastligi va fuqarolik jamiyatining qonun ijodkorligida sust ishtiroki kabi

dolzarb muammolar mavjudligicha qolmoqda. Ushbu muammolarni hal etish uchun huquqiy ta'limni kuchaytirish, fuqarolarning huquqiy ongini oshirish, qonunlar sifatini yaxshilash va sud tizimini yanada mustaqil qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur. Kelajakda konstitutsiyaviylikni yanada mustahkamlash va huquqiy davlatni barpo etishda ilmiy yondashuvlar, amaliy tavsiyalar va jamiyatning har bir a'zosi ishtirokining ahamiyati beqiyosdir. Faqatgina Konstitutsiyaning amaldagi ustuvorligi va qonuniylik tamoyillariga sodiqlik orqaligina adolatli va barqaror jamiyat qurish mumkin.

FOYDANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent: O'zbekiston, 2023. 15- modda.
2. <https://qashqadaryo.adliya.uz/>
3. "Konstitutsiya va Qonunning Ustunligi". M.M. Abdullayeva. Toshkent – 2023. 6-bet.
4. <https://president.uz/>
5. <https://uz.wikipedia.org/>
6. <https://constitution.uz/>
7. <https://arxiv.uz/>
8. 27.04.2021-yildagi "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy Qonuni O'RQ-687- son. <https://lex.uz/uz/>